

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING
“AYBDORMAN,HAYVONLAR NISHON PAYKONA...” SHE’RIDA INSONIY
AYBDORLIK VA FALOKAT TASVIRI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Inson ichki kechinmalari va ruhiy olami adabiyotning eng asosiy,markazda turuvchi mavzulari hisoblanadi.Hayotning murakkabliklari,insonning o‘zini hayotda sodir bo‘layotgan har qanday voqeaga mas‘ul his etishi,aybdorlik va mas‘uliyat yuki tushunchalari turli ijodkorlar asarlarida turlicha shakllarda badiiy-she‘riy uslubda yoritib beriladi.Taniqli adabiyot arbobi Aleksandr Arkadevich Faynberg ham ,shu jumladan,yuqorida keltirilgan mavzularda o‘zining benazr badiiy va falsafiy tafakkurini aks ettirgan beqiyos asarlarni yaratgan.Shoir o‘z lirikasida inson ichki kechinmalari va dunyo bilan insoniy munosabatni teran falsafiy mushohada orqali tasvirlagan.Faynberg she‘riyati insoniy ruhiyatni,tarixiy va ijtimoiy hodisalar oldidagi shaxsiy ma‘suliyatni va tabiat bilan uyg‘unlikni tushuntirib bera oladigan ajoyib asarlardan biri hisoblanadi.U shaxsiy tuyg‘u va kechinmalarni turli mavzular bilan hamohanglashtirib,o‘quvchini insoniy aybdorlik va mas‘uliyatni his qilishda chorlaydi.Shu bilan bir qatorda,shoirning ijodida insoniyatni qiynab kelayotgan masalalarga falsafiy nuqtai nazardan baho beriladi.Ushbu maqola Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Aybdorman,hayvonlar nishon paykona...” misralari bilan boshlanuvchi she‘rida aybdorlik va falokat tasvirini ko‘rsatishga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: insoniy kechinmalar, aybdorlik va aybsizlik, mas‘uliyat, falsafiy tafakkur, tabiat va inson uyg‘unligi, tarixiy va ijtimoiy voqealar, ramziy til.

Abstract: Human inner experiences and the spiritual world are the most important, central themes of literature. The complexities of life, a person's sense of responsibility for any event that occurs in life, the concepts of guilt and the burden of responsibility are illuminated in various forms in the works of various creators in an artistic and poetic style. The famous literary figure Alexander Arkadyevich Feinberg also created incomparable works that reflect his unique artistic and philosophical thinking on the above topics. In his lyrics, the poet described human inner experiences and human relations with the world through deep philosophical observations. Feinberg's poetry is one of the wonderful works that can explain the human psyche, personal responsibility for historical and social events, and harmony with nature. He harmonizes personal feelings and experiences with various themes, making the reader think about human guilt and calls for a sense of responsibility. At the same time, the poet's work evaluates the issues that torment humanity from a philosophical point of view. This article is devoted to the depiction of guilt and disaster in Alexander Arkadyevich Feinberg's poem, which begins with the lines "I am guilty, animals are a target...".

Keywords: human experiences, guilt and innocence, responsibility, philosophical thinking, harmony of nature and man, historical and social events, symbolic language.

Аннотация: Внутренние переживания человека и духовный мир являются важнейшими, центральными темами литературы. Сложности жизни, чувство ответственности человека за любое событие, происходящее в жизни, понятия вины и бремени ответственности освещаются в различных формах в произведениях разных творцов в художественно-поэтическом стиле. Известный литературный деятель Александр Аркадьевич Файнберг также создал несравненные произведения, отражающие его уникальное художественно-философское мышление по вышеуказанным темам. В своей лирике поэт описывает внутренние переживания человека и его отношения с миром посредством глубоких философских размышлений. Поэзия Файнберга – одно из замечательных произведений, способных объяснить человеческую психику, личную ответственность за

исторические и социальные события, гармонию с природой. Он гармонизирует личные чувства и переживания с различными темами, заставляя читателя задуматься о человеческой вине и призывая к чувству ответственности. В то же время, творчество поэта оценивает проблемы, мучающие человечество, с философской точки зрения. Данная статья посвящена изображению вины и катастрофы в стихотворении Александра Аркадьевича Файнберга, которое начинается со строк «Я виновен, животные – мишень...».

Ключевые слова: человеческий опыт, вина и невиновность, ответственность, философское мышление, гармония природы и человека, историко-социальные события, символический язык.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Aybdorman, hayvonlar nishon paykona...” she’ri insoniy aybdorlik va falokatlar motivini chuqur falsafiy va ramziy tarzda ochib bergan. She’rda shoir “aybdorman” deb davomiy takrorlaydi. Bu dunyoda sodir bo’layotgan nohaqliklar, falokatlar va mashaqqat- qiyinchiliklar qarshisida inson shaxsiy mas’uliyatni his qilishini yorqin ochib beradi. Mana shu qo’llanilgan takrorilikning o’ziyoq shaxsiy kechinmalar bilan birga ijodkor qalbiga azob berib kelayotgan iztirob va insoniyat bilan hamdardlikni o’zida aks ettiradi, inson faqat o’z hayotidagi qiyinchiliklar bilan bilan emas, boshqalarning muammolari bilan bog’liq ekanini ko’rsatib beradi.

Aybdorman, hayvonlar nishon paykona,

Aybdorman – bilmayman nechun o‘zim

ham –

O‘rolning ortida zor yig‘lar ona,

befarqdir poytaxtda o‘g‘li muttaham.

Aybdorman, falokat. Poyezd. Temir yo‘l.

Aybdorman – aqlga sig‘mas, taqdir shum –

Volgada g'allani urib ketdi do'l,
Son ming baliqchini Kasbiy qildi gum.
Aybdorman, otamni ham parchalashdi,
O'rmonni yondirdi bir kichik uchqun.
Aybdorman, Isoni xochparchinlashdi,
Aybdorman, u qayta tirilgan uchun.
Aybdorman, jahannam qa'ridan tubsiz
vulqonlar otildi, kul shahri ochun.
Faqat shu narsada aniq men aybsiz,
men aybsiz – aybdorman bor dunyo uchun.

Falokatlar tasvirlangan nuqtalar she'ring eng dramatik qismlaridir. Tabiiy hodisalar va inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan ofatlar bir-biri bilan uyg'unlikda tasvirlab berilgan. Masalan: "Volgada g'allani urib ketdi do'l" misrasi tabiiy kuchlar inson mehnati va faoliyatidan qudratliroq ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, "Son ming baliqchini Kasbiy qildi gum" misrasidan tabiiy ofatlarning inson hayotiga qancha zarar keltirishini ramziy til orqali aytadi. Bu tasvirlar inson hayoti va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi.

Shaxsiy yo'qotishlar va oilaviy drammatizm ham she'rda markaziy o'rin tutadi. "O'rmonni yondirdi bir kichik uchqun" va "Otamni ham parchalashdi" satrlari kichik sabablarning katta natijalarga olib kelishi, insonning nazorat qilolmaydigan voqealar oldidagi bevosita zaifligini ko'rsatadi. Bu orqali shoir insonning aybdorlik hissini kengaytiradi: odamlar o'z nazoratida bo'lmagan voqealar oldida ham o'zlarini mas'ul his qilishi mumkin.

Faynbergning she'ri shaxsiy va universal aybdorlikni birlashtirib, insoniy kechinmalarni falsafiy va psixologik qatlamlarda chuqurroq his qilish imkonini beradi.

She'r o'quvchini nafaqat shaxsiy dard va yo'qotishlar bilan yuzma-yuz keltiradi, balki insoniyat tarixidagi falokatlar va tabiatning dahshatli kuchlari bilan bog'liq mas'uliyatni ham his qilishga undaydi. Shu tariqa, shoirning ijodiy yondashuvi inson ruhiyatining murakkabligini, aybdorlik va mas'uliyat tushunchalarining ko'p qirraliligini aks ettiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynberg ushbu she'rida inson qalbidagi kechinmalari, aybdorlik va aybsizlik falsafasini bir nuqtada jamlaydi. Ijodkor she'rda shaxsiy yo'qotishlar, dard hamda tabiat, tarixiy fojealar haqida so'z yuritadi. Shuning uchun o'quvchi hayot murakkabliklari va insoniy aybdorlik tuyg'ulari bilan yuzlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ALEKSANDR FAYNBERG QORALAMAGA QASIDA She'rlar TOSHKENT «ADABIYOT»2021
2. Faynberg, A. Aybdorman. – She'riy to'plam.
3. Petrov, V. Rus she'riyati va inson ruhiyati. – Moskva, 2010.
4. Ivanov, S. Tabiat va inson: she'riyatda ramzlar. – Sankt-Peterburg, 2015.
5. Kochetov, L. Falsafiy lirika va zamonaviy shoirlar. – Moskva, 2018.
6. www.ziyouz.com — “Aleksandr Faynberg she'riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to'plami.